

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 8 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i><br>МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ<br>ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ<br>ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) ..... | 11-19 |
| <i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i><br>ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....   | 20-25 |
| <i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i><br>ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ<br>ЎҚИТИЛИШИ .....   | 26-30 |
| <i>Rustamov Ixomidin</i><br>“O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI<br>O‘ZBEKISTON TARIXI) .....   | 31-34 |
| <i>Normo‘minov Aziz</i><br>O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI<br>ISHTIROKI .....  | 35-39 |
| <i>Turdiboyeva Gulmira</i><br>VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR<br>SAMARASI .....   | 40-44 |
| <i>Xamidova Shoiria Rasulovna</i><br>PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....  | 45-51 |
| <i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i><br>МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ<br>ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....   | 52-54 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i><br>KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI<br>OMILLAR TAHLILI ..... | 55-60 |
| <i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i><br>TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI .....                            | 61-68 |
| <i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i><br>МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И<br>ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....    | 69-81 |
| <i>Baqoeva Dilfuza</i><br>SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA<br>YO‘NALISHLARI .....                              | 82-86 |
| <i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i><br>TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....                          | 87-93 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Donayev Sheroli Burxonovich</i><br>DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT<br>STRATEGIYASINING AHAMIYATI .....  | 94-101  |
| <i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i><br>ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ<br>МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....  | 102-109 |
| <i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i><br>ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....  | 110-117 |
| <i>Sherov Alisher Bakberganovich</i><br>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI .....  | 118-129 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>   |         |
| <i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i><br>MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY-<br>AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI .....                      | 130-135 |
| <i>Muhamedov Asror</i><br>G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR .....   | 136-145 |
| <i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i><br>HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY<br>AHAMIYATI .....   | 146-151 |
| <i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i><br>INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH<br>ZARURIYATI .....   | 152-156 |
| <i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i><br>AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK<br>VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI ..... | 157-162 |
| <i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i><br>ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ .....   | 163-168 |
| <i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i><br>YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY<br>TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI .....  | 169-174 |
| <i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i><br>MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR<br>SIFATIDA QARASH .....  | 175-179 |
| <i>Muxtorova Tutixon</i><br>GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA<br>XOS JIHATLARI .....  | 180-186 |
| <i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i><br>ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR<br>QARASHLARI TAHLILI .....  | 187-194 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Pirnazarov Nurnazar</i><br>TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING<br>FALSAFIY TAHLILI.....   | 195-201 |
| <i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i><br>DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING<br>MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV .....        | 202-209 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>   |         |
| <i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i><br>RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI<br>TALQINI .....  | 210-216 |
| <i>Bozorbekov Ahmadbek</i><br>O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI<br>TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI .....                    | 217-230 |
| <i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i><br>ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA<br>MANBALARIDAN FOYDALANISH .....                         | 231-236 |
| <i>O'tebaeva Dilbar</i><br>TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR .....  | 237-242 |
| <i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i><br>EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI<br>("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) .....                             | 243-247 |
| <i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i><br>INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....   | 248-252 |
| <i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i><br>QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI .....   | 253-256 |
| <i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i><br>OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY<br>GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA ..... | 257-262 |
| <i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i><br>FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA<br>SPETSIFIKASI .....  | 263-268 |
| <i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i><br>BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI<br>(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....                  | 269-272 |
| <i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i><br>MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA<br>MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI .....       | 273-277 |
| <i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i><br>TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI .....   | 278-284 |
| <i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i><br>ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY<br>IFODA MUKAMMALLIGI .....                                 | 285-292 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i><br>O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI .....  | 293-298 |



**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*  
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH  
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI ..... 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*  
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА  
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ ..... 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржонова*  
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ  
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ..... 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*  
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*  
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В  
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ..... 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*  
TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI ..... 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*  
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI ..... 357-368
- Утанов Фурқат*  
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ  
МАҚОМИ ..... 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*  
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH  
TENDENSIYASI ..... 375-381
- Назарова Марҳабо*  
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В  
УЗБЕКИСТАНЕ ..... 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*  
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ  
МАСАЛАЛАРИ ..... 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*  
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ  
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*  
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A  
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS ..... 407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*  
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK  
YONDASHUVLARNING ROLI ..... 413-417

|  |         |
|--|---------|
| <i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i><br>BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA<br>RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....   | 418-423 |
| <i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i><br>HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....   | 424-429 |
| <i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i><br>NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI<br>YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR .....   | 430-435 |
| <i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i><br>O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK<br>XUSUSIYATLARI .....  | 436-439 |
| <i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада<br/>Ботировна</i><br>ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ<br>ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА ..... | 440-444 |
| <i>Rasulova Fotima Farxotovna</i><br>O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY<br>YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....   | 445-450 |
| <i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i><br>YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA<br>ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....  | 451-456 |
| <i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i><br>SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....  | 457-461 |
| <i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i><br>MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK<br>DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....   | 462-467 |

**10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Received:** 30 July 2024

**Accepted:** 5 August 2024

**Published:** 15 August 2024

*Article / Original Paper*

**INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT MOTIFS IN THE WORKS OF RAY BRADBURY AND ISAJON SULTON**

**Yuldoshova Shakhnoza Azimboyevna**

Independent researcher of Uzbekistan State, University of World Languages

**Abstract.** The article provides a comparative-typological analysis of enlightenment motifs in Ray Bradbury's works " Fahrenheit 451" and Isajon Sultan's "The eternal wanderer". The works are analyzed as motifs affecting the growth and inner experiences of the characters as motifs of enlightenment. The universal and specific aspects of the works are explored.

**Keywords:** Motif, symbol, fire, burning, wandering, symbolism, book burning, mental wandering.

**RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI**

**Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" va Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanlaridagi ma'rifatparvarlik motivlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Asarlarga qahramonlar ruhiyatidagi o'sish va ichki kechinmalariga ta'sir etuvchi motivlar, ma'rifatparvarlik motivlari sifatida tahlil qilinadi. Asarlarning universal va xususiy tomonlari tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Motiv, timsol, olov, darbadarlik, ramziylik, kitob, o't qo'yish, ruhiy sarsongarchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N30>

**Kirish.** Adabiyotshunoslikdagi motiv - bu asar yoki asarlar turkumi davomida ataylab ko'p marta takrorlanadigan obyekt, tushuncha yoki element. Epik asarlarda motiv asar mavzusini ochib beruvchi, takroriy shu bilan birga timsoliy badiiy asar elementidir. Adabiyotshunoslikda "motiv" tushunchasi bir qancha olimlar va izlanuvchilar o'rganib chiqishgan. Xususan, adabiyotdagi motivni A.N.Veselovskiy (Tarixiy Poetika), O.Fraydenberg, V.Propp, V.Shklovskiy, Tomashevskiy (nazariy poetika nuqtai nazaridan) kabi olimlar va bir qator zamonaviy olimlar - I.Silantiev, V. Tyupa, G. Krasnov, I. Kuznetsov, L. Tselkova, Yu. Shatin, shuningdek bir qator xorijiy olimlar - X.S.Daemrich, S.Tompson, L.Dolezel, V.Fridman, E.Frenzel, T.Tsiolkovskiylar tomonidan ham keng o'rganilgan.

Ma'ripatparvarlik motivlari haqida so'z borar ekan avvalo "ma'rifat" so'zining ma'nosini anglash muhimdir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida - "Ma'rifat — kishilarning ongini, bilimni, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilmu urfon ma'nosida

ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Tasavvufda Ma'rifat sufiylarning ruhiy kamolotga erishuvining asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi." (O'zME. I jild. Toshkent, 2000-yil. "M" harfi) degan ta'rif berigan. Shunga asoslangan holda badiiy asarda bosh qahramonning ruhiyatiga ta'sir qilib, jaholatga qarshi kurashishga, uni kamolotga yetaklagan, ma'nan yuksalishga undagan tasviriy timsollarni ma'rifatparvarlik motivlari sifatida olib tahlil qilamiz.

**Asosiy qism.** Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" asarida olov timsoli alohida o'rin egallaydi. Asar boshidanoq o'quvchiga *"It was a pleasure to burn. It was a special pleasure to see things eaten, to see things blackened and changed."* (Bredberi R., 1995, 3.)- *"O't qo'yish unga rohat bag'ishlardi. Olovning hamma narsalarni o'z domiga tortishi, ularning qorayib, shakl-shamoyili o'zgarishini kuzatishning qandaydir o'zgacha gashti bo'ladi."* (Bredberi R., 2007, 3.) – deya o't qo'yish va olovning bosh qahramon Monteg hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Asar boshidanoq o't qo'yish va o't o'chiruvchilik kasbi haqida yoritayotgan muallif olovning buzg'unchilik xususiyatiga to'xtaladi: *"while the flapping pigeon-winged books died on the porch and lawn of the house. While the books went up in sparkling whirls and blew away on a wind turned dark with burning."* (Bredberi R., 1995, 3.)- *"... kitob sahifalari kabutar qanotlari kabi shitirlab, olovda halok bo'layotgan paytda..., keyin ular olov quyunida osmoni falakka ko'tarilib, kulning qora qurumini shamol bir chekkaga surib ketardi."*(Bredberi R., 2007,3.) Insoniyat tarixi, ma'daniyati va yuksalishi timsoli bo'lgan kitoblarni yoqish, bilimni yo'q qilishga qaratilgan jamiyatning a'zosi bo'lgan o't o'chiruvchilarning kasbini, ularni qilayotgan ishlarni beozor kabutarlarni qanotlarini yoqish va o'ldirishga qiyoslash, so'ngra esa bu yonishdan qolgan "kulni" bilimning oxirgi manbalarini ham shamol uchirib ketishini tasvirlash orqali yozuvchi yoritayotgan jamiyati qanchalar ilmsizlikka mukkasidan ketganini, jaholat botqog'iga botganini, o't o'chiruvchilar vazifasining teskarisini bajarishayotganini ko'rsatmoqchi ekani seziladi.

Bredberining lirik va og'ir sifatlovchi yozuv uslubi hikoyani ramziy ma'no bilan boyitadi. Misol uchun, "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romanida olov bilan bog'liq mavzuiy muommo mavjud. Olov butun roman davomida namoyon bo'ladi, ammo voqealar rivoji bilan olovning ramziy ma'nosi o'zgaradi. Ushbu o'zgarishda Bredberining majoziy tildan foydalanishi muhim rol o'ynaydi. Kitobning boshida olov halokat zavqini anglatadi. Biroq, roman oxiriga kelib, olov halokat emas, balki hayot timsoliga aylanadi. Bunga esa, bosh qahramonning asar davomida asta-sekinlik bilan anglovlari orqali yetib boradi. Umuman adabiyotshunoslikga olov motiv sifatida ham, timsol sifatida ham keng foydalaniladi. Timsol-ramzlar turli kontekstlarda turli narsalarni anglatadi. Olov insoniyat tarixi davomida turli xil usullarda ramz sifatida ishlatilgan. Quyida badiiy adabiyotda olovning ramziy ma'nolarining qisqacha tavsifi keltiriladi.

Bilim ramzi sifatida olov timsoli, Yunon mifologiyasidagi Prometey afsonasiga borib taqaladi, u xudolardan muqaddas olovni Olimp tog'idan o'g'irlab, odamlarga beradi. Olovdan foydalanishni, u orqali hayotning mashaqqatlarini yengillatishni o'rgatadi. Shu tufayli olov "Bilim" timsoli sifatida badiiy adabiyotda keng foydalaniladi. Jazo ramzi sifatida olov tasviri, do'zaxning deyarli sinonimi bo'lib, Injilda u gunohlar uchun jazo sifatida keltiriladi. Islom dinida ham Qur'oni Karimda do'zaxning otash-alanga, kuydiruvchi, olov mangu yonuvchi joy sifatida

tasvirlanadi. Olov narsalarni yo‘q qiluvchi vayronagarchilik ramzi sifatida ishlatiladi. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”da ko‘rsatilganidek, olov boshqariladigan yo‘q qilish vositasi bo‘lishi mumkin, u kitoblarni yo‘q qilish va shu tariqa fikrni senzura qilish uchun ishlatilishi mumkin. Boshqa tomondan, olov nazoratsiz halokat ramzi sifatida ishlatilishi mumkin. Zardushtiylik-otashparastlik ta‘limotida ham olov poklovchi hamma gunohlardan forig‘ etuvchi sifatida yoritiladi. Olovni yana qayta tug‘ilish va tirilish bilan bog‘laydilar, chunki u afsonaviy qush Feniks-Qaqnus bilan bog‘liqdir. Feniks umrining oxirida alangalanib yonib ketadi va o‘zining kulidan afsonaviy jonzotning hayotini takrorlaydigan feniks bolasi paydo bo‘ladi. Xuddi olovda yonib ketgan o‘rmon har doim tiklanganidek, bu jarayon bir necha marta davom etadi. Bu esa o‘z navbatida olovning nafaqat buzg‘unchilik balki qayta tiklovchilik hayotning aylanma qonuniyatining ramzi sifatida ham ifodalanadi.

Bilim va jaholat o‘rtasidagi kurash jamiyatda sodir bo‘lib turadiga hodisadir. Rey Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romanida hukumat axborotni senzura qilish va kitoblarni yoqish orqali odamlarni ongini nazorat qilishga harakat qiladi. Bosh qahramon Gay Monteg jaholat targ‘ibotini to‘xtatish va konformistik jamiyatda o‘zgarishlarni izlash maqsadida o‘zi, boshlig‘i Bitti va hukumat bilan kurashadi. Ushbu romanda muallif olov motivining ma‘nosini mohirlik bilan o‘zgartirib, salbiy assotsiatsiyadan bilim bilan ijobiy bog‘lanishga o‘zgarishni ifodalaydi.

Dastlab, Rey Bredberi yong‘inning halokatli yonishni ta‘kidlab, bilim bilan salbiy bog‘lanishni tasvirlash uchun olov motividan foydalanadi. Monteg kitoblar va uylarni yoqib yuboradigan o‘t o‘chiruvchining qo‘llarini *“the hands of some amazing conductor playing all the symphonies of blazing and burning”* – *“olovli va yonayotgan barcha simfoniyalarni ijro etuvchi ajoyib dirijorning qo‘llar”*(Bredberi R., 1995, 3.) sifatida tasavvur qiladi. Monteg jamiyati kitoblardan olingan donolik shaklida keladigan bilimlarni yo‘q qiladi. Monteg *“flicked the igniter and the house jumped up in a gorging fire that burned the evening sky red and yellow and black”- O‘t oldirish murvatini bosgan zahoti alanga — quyosh qoraygan osmonni to‘q qizil-sariq va qora ranglarga chulg‘ab oladi.”* U bu olovga ijobiy munosabatda bo‘ladi, chunki, uning jamiyatida o‘t o‘chiruvchining burchi kitoblarni yoqish va shu bilan ilmning yomonligini yo‘q qilish, jaholatni rag‘batlantirish va jamiyatda bir xillikni saqlashdir.

Bredberi, shuningdek, olov bilan bilimlarni yo‘q qilishga qaratilgan harakatlarni yetkazish uchun o‘xshatish va tasvirlardan foydalanadi. Bu Bleyk xonimning uyida o‘t o‘chiruvchilar jurnallarni uloqtirganda namoyon bo‘ladi. Monteg shunday ta‘riflaydi: *“They fell like slaughtered birds”* – *“Jurnallar otib tushirilgan qushlar kabi pastga qular...”* va *“The books lay like great mounds of fishes left to dry”*- *“Kitoblar quruqlikka chiqib qolgan baliqlar kabi sochilib yotardi”* (Bredberi R., 1995, 37-38.). *“O‘lik qushlar”* va *“quriklikka chiqqan baliqlar kabi”* o‘xshatishlari bilan yaratilgan yorqin tasvirlar o‘lim va kitoblarni yoqish uchun olovdan foydalanish va o‘z navbatida bilim olishning, ilmning yomonligini ta‘kidlash uchun qo‘llanilgan. Asar davom etar ekan, Bredberi olov motividagi o‘zgarishdan Montegning bilimga salbiy munosabatda bo‘lishdan bilimga ijobiy nuqtai nazardan qarashgacha bo‘lgan ramziy o‘zgarishini ifodalash uchun foydalanadi. Monteg *“Biz hech qachon o‘t qo‘yib yoqishdan to‘g‘ri foydalanmadik.”* – deya o‘z kasbining, avval qilgan ishlarining noto‘g‘ri ekanligini, har doim ular kerakli bo‘lgan, jamiyatning rivoji uchun xizmat qiluvchi kitoblarni yoqishganini sharhlaydi.

Asar davamida voqealar rivoji bosh qahramon har safar olovni uchratganidan keyin keskin burilish ola boshlaydi. Avvaliga Monteg o‘z sevimli kasbida kitoblarni yoqib, olovning

qanchalar maftunkor va jamiyatini yomonliklardan tozalovchi ekanini his qilib ishdan qaytayotgan bo'lsa, so'ngra Klarissani uchratadi. U bilan bo'lgan suhbatdan keyin hayollari butunlay to'zg'ib ketadi. Kitoblar, o'zi yashayotgan olam, oilasi, Mildred olov hammasi chilpirak bo'lib miyyasida aylanib uni so'roqqa tuta boshlaydi? U o'zi to'g'ri yashayaptimi? Yoki yo'q? Keyingi voqealar rivojida keksa ayol o'z uyida kitoblari bilan yonib ketishni tanlaganida yana keskinlashadi. Endi Monteg butunlay boshi berk ko'chada sang'ib yurgandek gangib qoladi. Yana olov va yog'in. Shunchalik havfli va zararli bo'lsa nega bu keksa ayol ular bilan o'lishni tanlaganini, o'limi oldidan aytgan so'zlarini o'ylaydi, oxiriga yetolmaydi. Kapitan Bittining o't qo'yuvchi moslama bilan yoqib yuborishi bilan asar voqealarida keyingi burilish bo'ladi. Yana olov. Umuman bu qismni asarning klimaksi yani avj nuqtasi deb olsak maqsadga muvofiq bo'ladi-ki shundan keyin bosh qahramon butunlay avvalgi hayotidan qochib, yoyinki poklanib yangi to'g'ri hayot sari yo'l oladi. Undan keyin shaharning bambardirovka qilinishi va butunlay kuli ko'kka sovirilishi, yana olov va uning poklovchi xususiyati haqida bog'liqlik beradi. Bu voqealar asnosida bosh qahramon ma'nau yuksalib ma'rifat sari yuzlanib boradi. Asar so'ngida Monteg olovning nafaqat yondirish xususiyati balki isitishini kashf qilishida uning kamolot va to'g'ri yo'lga yuzlanganining ma'juziy timsoli sifatida ko'rinadi.

“Farengeyt bo'yicha 451 daraja” romanida Rey Bredberi bilimga munosabatning salbiydan ijobiyga o'zgarishini ramziy qilish uchun olov motividagi o'zgarishlardan mohirlik bilan foydalanadi. Dastlab, kitoblarni yoqish va bilimning yomonligini yo'q qilish uchun olovdan halokatli tarzda foydalanadi. Roman davom etar ekan, olov erkinlik va bilimga intilish ramzi bo'lib, Monteg o'zining eski, zulmli hayotidan xalos bo'lib, bilimga quchoq ochib, fikr erkinligi sari yo'lga chiqadi. Roman oxirida olov bilimning qayta tug'ilishini va Montegning kitoblarni yo'q qilishni maqsad qilgan olovni yaxshi ko'radigan o't o'chiruvchidan ularning ahamiyatini tushunadigan odamgacha bo'lgan sayohatini anglatadi. Asar bilim inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, foydalanilish vaziyatiga qarab buzg'unchi yoki ijodiy bo'lishi mumkinligini tarannum etadi.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asari ham bilimning buzg'unchi xususiyatini, insonning tabiatdan uzilishining qanchalar halokatli ekanini, zamonaviy dunyoda tezliklar asrida, inson atalmish eng yuksak mavjudotning o'z hoxish va nafsiga ergashib ma'nau yo'qlikka muhtalo bo'lishini, darbadarlik motivi asosida yetkazishga harakat qiladi.

Avvalo boqiy yashovchi darbadar kishi haqidagi mavzu dunyo adabiyotida bir necha asrlardan beri turlicha talqinlarga yo'l ochib kelayotgan mangu mavzulardan biridir. Turli-tuman asarlariga turtki bo'lgan bu voqea: qatl uchun olib ketilayotgan Iso alayhissalom devoriga suyanib bir oz tin olishni istagani uchun unga qo'l ko'targan va shu sababli Iso Alayhissalom yer yuziga qaytguniga qadar olamda darbadar kezishga va insonlar nafratiga duchor bo'lgan bir etikdo'z voqeasidir.

Rivoyatlarning ba'zilarida esa, endilikda Boqiy darbadarga aylangan o'sha etikdo'zning har ellik yilda Quddusga tavba qilish uchun kelishi, lekin har kelganida dahshatli shamol ko'tarilishi va niyatiga erisha olmasligi haqida xabar beriladi. Voqea nuqtai nazaridan olsak, bu personajga mohiyatan yaqin boshqa rivoyatlar ham anchagina. Masalan, vahshiy qush jazolayotgan Prometey, Boqiy darbadar kabi daydisha mahkum etilgan Qobil, tog'ga behuda tosh olib chiqishga abadiy urinayotgan Sizif va nihoyat, o'rta asrlar Yevropasining “Uchar gollandiyalik” haqidagi mashhur afsonasi. (Rasulov A., 2017, 58) Mangulik motivlari asrlar bo'yi ijtimoiy vaziyatlarga qarab turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Vizantiya asotirlaridagi

talqinlarda esa Iso Alayhissalomning qatli uchun mix quygan hamda shu ishida davom etishga abadiy mahkum temirchi haqida rivoyatlar uchraydi. Voqeaning yana bir talqinida Boqiy darbadar iymonli, avliyolarga xos hayot kechiruvchi, Iso Alayhissalom risolatining mangu tirik guvohi o'laroq tavsiflanadi. Shuningdek, italiyalik astrolog Gvido Bonatti 1267-yilda muqaddas Yoqub monastirida o'zini Ioann Buttadeo deb tanishtirgan kishini ko'rganidan xabar beradi. Endi u tosh yerto'lalararo adashib yurishga mahkum bechora qiyofasida namoyon bo'ladi. Yigirmanchi asrda ham bu g'alati obrazga murojaatlar davom etadi. Redyard Kipling "Boqiy yahudiy", Apolliner "Praga yo'lovchisi", Xorxe Luis Borxes "Mangular shahri" novellasida, Per Lagerkvist "Agasferning o'limi" romanida, Gabriel Garsia Markes "Yolg'izlikning yuz yili" romanida, Stefan Geym "Agasfer" asarida va Jand'Ormesson "Boqiy darbadarning tarixi" asarida (1991) murojaat qiladilar. (Rasulov A., 2017, 62) Obrazga munosabat va talqinlarda Yevropa pessimizmi, romantizmi, ijtimoiy formatsiyalar va diniy qarashlarning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ko'plab klassiklarning diqqatini jalb qiluvchi, adiblar, faylasuflar, mutafakkirlar mangu darbadarlik qismatida o'zlari yashayotgan muhit va dunyo haqidagi fikrlari bilan murojat qilinadigan mavzu ekanligi oydinlashadi.

Ana shunday anchagina yoritilgan mavzuga yozuvchi Isajon Sulton o'zgacha yondashuv bilan murojat qiladi. Turli-tuman sohalarda taraqqiyotga erishayotgan bugungi kunning olatasir hayoti aro borar yo'lini, qadriyatlarini yo'qotib qo'ygan, istasa, yer yuzini ag'dar-to'ntar qilib tashlashga qodir bugungi kun kishisi peshonasiga "boqiy darbadar" degan tamg'a uriladi. har kishining qalbida payg'ambar da'vati kabi bir vijdon va iymon hayqirig'i bor deyishadi. Ana shu iymon va vijdon timsoliga "qo'l ko'targan" va alal-oqibatda muqaddas maqsadlaridan ayrilib, hayoti faqatgina yeb-ichishdan va o'yin-kulgi qilib daydib yurishdan iborat bo'lib qolgan dunyodagi barcha kishilar darbadardir degan g'oya ilgari suriladi. Shu o'rinda bundan yetmish yillar oldinroq shunday ko'ngilxushlik va nafs ila harakatlanadigan jamiyatni bashorat qilgan Ray Bredberining asari bilan nozik o'xshashlik va bog'liqlikni payqamaslik mumkin emas.

Yozuvchi romanda dunyo hukmronligini ta'minlashga harakat qilib, G'arbning yashirin ilmiy markazlarida mukammal aql va aql-zakovatga ega bo'lgan o'lmas insonni yaratadi. Bu sun'iy barhayot inson koinotni yaratgan Xudoning qudratini anglab yetadi va laboratoriyalarda klonlash Xudoga qarshi, gunoh bo'lgani uchun kashfiyotchilar qafasidan qochib, abadiy kezuvchi yer kurrasi mahbusiga aylanadi. Sun'iy mukammal odamning yer yuzi aholisiga yo'llagan murojatida muallif insoniyat taqdiri haqidagi o'zining fikrlar, falsafiy qarashlarini ifoda etadi.

Barcha yo'llar bir xil manzilga eltadi. Sharqning eng mustahkam falsafasi shundaki, u o'zini koinotning markazida ko'rmaydi, egosentrizmdan yiroq, Sharq faqat o'z Vatani, muhiti, millati, davlati doirasidagina yetuklikka erishadi degan g'oya asrlar davomida yashab kelgan va o'z tasdig'ini topgan.

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani "darbadarlik" tushunchasi ostida boshqacha fikr-mulohazalar, o'zgacha falsafa yotganinini seziladi. Chunonchi, darbadarlik deganida faqat moddiy ahvoli yo'q'ib yuruvchi, manzilgina yo'q insonlar emas, balki hayot maqsadi nafs va mazmuni esa shishirilgan puffakday bo'sh bo'lgan taqdirlar ham nazarda tutiladi. Bunday hayot tarzi ommaviy qirg'in qurolday zararli. Inson hayot muammolaridan xoli, jozibali va qoniqarli hayot kechirishga intilishi, tinch yashashi mumkin va bu yo'lda ham qalb darbadarligi xavfi mavjud. Muallif yer osti yerto'lasiga kirib, atom nurlanishidan o'z jonini saqlab qolish mumkinligini, darbadarlik xavfidan qutulish mumkin bo'lgan yagona joy – bu iymon ekanligini

aytadi. Faqat iymon hamma narsani muvozanatlashtiradi va hayotning mohiyatini belgilaydi, inson hayotiga baho beradigan muqaddas tushuncha ekanligini ta'kidlaydi.

Darbadarlik esa millatni va madaniyatni yo'q qiladi. "Boqiy darbadar" romanidagi Haybar shahrini ayni shu tushunchani timsollaydi. Bir to'p mangu kishilar ochiq maydonda asrlar bo'yi o'tirishibdi. *"Sal narida ko'hna ark bor, engashib qaraganimda miltirab oqayotgan qoramtir suvni ko'rdim. U yerda kosasida g'alati naqshlari bor ko'r toshbaqa ham bor edi..."* (Sulton I., 2010, 32) deydi yozuvchi. Mangulik suvi haqidagi afsonamiz esga kelmayaptimi? Ha, Haybardagi yoshu qari mangulik suvidan ichdi va bo'sh maydonda xaloskor o'limning kelishini sassiz kutib o'tirishdan boshqa chorasi qolmadi. *"Na til qolgan edi, na madaniyat..."* deydi muallif. Aslida, mangulik suvi ham ramziy tushunchadir. Insonlar mangulikka erishishlari mumkin. U mangulik sirayam la'nat orqali kelmaydi, balki muqaddas tushunchalarga sadoqat, elu yurtning duosi bilan keladi.

Shu o'rinda asarni o'qiyotgan o'quvchida o'rinli savol tug'iladi. Asarda bot bot takrorlanayotgan boqiy kezuvi darbadar inson aslida bir insonning tarix varaqlariga sochilib ketgan siymosimi yoki aslida darbadar insonlar insoniyat tarixida ko'p uchraydimi? Muborak zotning qarg'ishiga qolgan etikdo'z, arab sahrolarida kezib yuruvchi samum odami, Tiyonshon bag'ridagi g'orda istqomat qiluvchi avliyo, somoniylar amirining muqaddas naqshli toshbaqasini yetaklagan uzun bo'yi yalangayoq bir odam, shahri Haybarda yashayotgan mangu kishilar jamoasi, Luvrdagi teatr sahnasida mangu daydi rolida monolog o'qigan uzun bo'yi, sochlari yelkasiga tushgan odam, mutafkkirning nido maktubini yozgan odam, lo'lilalar karvonboshisi ko'rgan kuchuk yetaklagan uzun bo'yi odam... Agar darbadar deb borar manzilini yo'qotgan insonga aytilsa, unda insoniyatning asl borar manzili qayer? Barcha dinlar va falsafalarda "inson yashaydi va o'ladi, o'limdan keyin hayot bormi, bor bo'lsa qanday?" – degan savol va unga javob bor. Aslida insoniyatning borar manzili – iymon bo'lsa, iymonning so'nggi – qiyomatdir. Yozuvchi aytganidek *"Qanchalar uzoq umr berilsa-da, bu olamdagi hamma narsa kun kelib sovurilib, yo'q bo'lib ketishining tirik guvohi bo'lishi hikmati"*, yohud *"o'zining yaratilishi ham aslida bir hikmatga ishora ekanidan umidvor bo'lib"* (Sulton I., 2010, 24.) darbadar yurgan bu inson qismati ham odamzotga qiyomatni eslatib turuvchi bir vosita ekanligidir. *Hayoti mobaynida ilohiy mujdani rad etib, darbadarlikni o'z bo'yinlariga olgan sanoqsiz kishilar olomonini ogohlantirish, favqulodda chuqur his etishlik yozuvchining asar mobaynidagi xabaridir. Boqiy kezuvi bu odam insoniyatga qarab "Eng chiroyli lazzatlar ostiga chirkinlikni yashirganini, beo'xshov narsalarning bag'rida ajoyibotlarini saqlaganini ko'rmayapsizmi? Har narsaga yetgan aqlingiz bularga kelganda oqsab qoldiyu meni badbaxtlikda ayblab, Azozilga teng qo'yingizmi? Aslida men – qiyomatda olishi kerak bo'lgan jazosining bir qismini shu dunyoda olganlardan bittasiman, xolos.* (Sulton I., 2010, 35.)- deb hitob qilmoqda ekan, nechun bugungi kunning ilmli insoni bu mudhish qarg'ishni o'zi yaratmoqchi? Ommaviy har narsa insonni adashishlarga olib kelishi bu olam kashfiyotlarining aslida sinov ekanini bildirib turibdi. Romanda tilga olingan, bir qarashda xayoliydek tuyulgan voqeaga diqqat qarataylik: Qizil dengiz sohilida Xizr Alayhissalomni uzoq vaqt kutib o'tirgan Boqiy darbadarning tushib qolgan bir dona soch tolasi topildi va uning gen tuzilishi o'rganilib, yangi asrlarning mangu yashovchi maxluqi yaratildi. Bu barhayot jonzot o'lmasligi va turli ilmlarni o'zida jamlagani bilan qo'rqinchlidir. La'natning klonlashtirilishi insoniyatga yana qanday daxshatlarni paydo qilishini odam tasavvuriga sig'dirishi qiyin. Demak, insoniyatga taqdim qilinayotgan bunday imkoniyatlar ko'rinishidagi har qanday ne'mat, agar ezgulik va iymon



ravnaqi uchun qo'llanilmasa, albatta halokatlidir, ne'matlik xususiyatini o'zgartirib, falokatga aylanishi mumkin.

Yaratguvchiga isyon ila yaratilgan sun'iy genomlar tasviri ham e'tibor qaratsak. Ularning biri kuchli nurlanishga chidamli qilib yaratilgan, lekin kamchiligi bor – uni ko'zlari ko'rmaydi. Yana bittasi esa suyaklari egiluvchan va chidamli lekin mushaklari kerakli ma'danni yetkazib berolmaydi, boshqasining esa aqli yo'q biroq barhayot yashardi. Mukammal qilib yaratilgan sun'iy mavjudot esa unga berilgan aql zakovat bilan fikrlab, "Men kimman?", "Otim nima?"- deya nega yaratilganini bilish uchun, bu olamning yaratguvchisini izlab yo'lga chiqadi. Bu darbadar genoma aslida hayot haqiqatini izlagan, asliyatini, menini qidirgan har bir inson timsoli bo'lib keladi. Umuman romandagi barcha darbadarlarni tahlil qilinganda, ularning barchasi ramziy ma'noga ega ekanligini anglash mumkin. "Xudo yo'q" deya faqat aql va tafakkurgagina suyanuvchi, barcha narsani faqatgina insonning o'zi yaratganligi, tabiiy rivojlanish qonuniyatinigina tan olib da'vo qiluvchi, ammo shu aql-zakovatni odamzot shuuriga joylab qo'ygan Buyuk Zotni rad etuchi zamonning atestik insonlari timsoli darbadarlar. *Na millati, na dini, na tili qolgan* globallashuv natijasiga aylanib ketgan ma'nan darbadar insonlar ramzi bo'lgan darbadarlik. Ruhiyat nuqtai nazaridan oladigan bo'linsa, tug'ilishidan qanchalar oldin bitilgan taqdirining egasi bo'lgan Zotni anglash uchun umr yo'lga chiqqan qalb kishilarining timsoli sifatida ham ko'rinadigan darbadarlik ya'ni, zahid qalblar timsolidir. Yana bir darbadarlik esa, roman so'nggida insoniyat qum bo'roni ostida qolib, dunyo sahroga aylangach, *baland bo'yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq* bir inson yolg'iz o'zi sahroda ketib borayotgani tasvirlanadi. "Bu odamni keyingi asrlarda yanada ko'proq eslaydilar. Uni goh darbadarlikka mahkum insonlarning, goho esa taqdirlarning va xalqlarning timsoli sifatida tilga oladilar." (Sulton I., 2010, 50) Bu so'nggi darbadar umid ramzi bo'lib o'qirmanga to qiyomat kelguncha hali iymon yo'lga qaytishga vaqt bor ekanini eslatadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan, insoniyatning shavqatsizlarcha moddiy va jismoniy iste'molga mukkasidan ketgan hozirgi zamon kishilarining bu mangu daydib yurguvchini, abadiy insonni dunyo oxiriga qarab ko'proq va yana ko'proq eslanishi va timsollanishi ham aslida dunyoning qanchalar o'tkinchiligining eslatishga urinayotgan borar manzilini yodidan chiqargan kundalik hayot tashvishlari bilan mashg'ul bo'lgan oddiy insonlarning ham timsoli ekanliginiga to'g'ridan to'g'ri ishoradir.

**Xulosa** qilib aytganda, har ikki asarning mutolasi tugangandan so'ng, o'quvchi olis o'tmishning hikmatlaridan, kelajakning tuhfaridan, hozirining lazzatidan shukronalik hissiyotini his qiladi va hayot kitobini varaqlab, o'z-o'ziga savol bera boshlaydi, asliyatini taftish qiladi. Insoniyatga nasf va jismoniy oziq qanchalar muhim bo'lsa, ruhiyat ozig'i bo'lgan bilim, iymon, taffakkur ham shunchalar muhim ekanini anglatadi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zME. I jild. Toshkent, 2000-yil. "M" harfi
2. Rey Bredberi . Farengeyt bo'yicha 451 daraja. // Jahon adabiyoti, 2007. – №7. – B. 208. Tarjimon Mirza-Anvar Karimov 3-bet
3. Ray Bradbury, Fahrenheit 451. New York: Simon & Schuster Paperbacks. (1995). 3-bet
4. YETUKLIK JOZIBASI. Isajon Sulton ijodi: ilmiy maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar, maktublar. Toshkent. «Turon zamin ziyo» 2017. A.Rasulov 58-bet
5. Isajon Sulton, "Boqiy Darbadar", "Sharq yulduzi" jurnali, 2010, 6-son

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).